



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov** vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev** vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev** vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyev** vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNİ .....	18
<b>O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich</b> <b>Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li</b> XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI .....	22
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna</b> ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
<b>Babajanova Dilfuza Abdurasulovna</b> HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	32
<b>Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna</b> TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
<b>Barotov Umidjon Mahmud o'g'li</b> BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
<b>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</b> <b>Abdullayeva Gulsanam</b> ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK .....	53
<b>Kambarova Liliya Ruslanovna</b> РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ .....	56
<b>Алибекова Саодат Лапасовна</b> EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	61
<b>Usmonova Dilfuza Iloxomovna</b> O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
<b>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</b> KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....	72
<b>Xaydarova Kamola Axinjanovna</b> <b>Berdiqulov Suhrob Berdiquil o'g'li</b> KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	78
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b> <b>Xolmurodova Sevara Asqarovna</b>	



# KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

**Latipova Shaxnoza Maxmudovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Moliya kafedrası dotsenti, PhD.

ORCID: 0000-0002-8459-3178

**Xolmurodova Sevara Asqarovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar jarayonlarining nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati hamda zamonaviy sharoitda rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot doirasida mazkur jarayonlarning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, integratsiya jarayonlarida yuzaga keladigan muammolar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar jarayonlarining transformatsiyasi hamda innovatsion texnologiyalarning ushbu jarayonlarga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, mazkur yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** birlashish, qo'shib olish, globallashuv, sinergetik samara, gorizontaal birlashish, vertikal birlashish, konglomerat birlashish.

**Аннотация.** В статье раскрываются теоретические основы, экономическая сущность и перспективы развития процессов корпоративных слияний и поглощений в современных условиях. В рамках исследования определены основные факторы, влияющие на эффективность данных процессов, а также научно обоснованы проблемы, возникающие в ходе интеграции. Кроме того, проанализированы трансформация процессов слияний и поглощений и влияние инновационных технологий на их развитие. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию данных процессов.

**Ключевые слова:** слияние, поглощение, глобализация, синергетический эффект, горизонтальное слияние, вертикальное слияние, конгломератное слияние.

**Annotation.** This article examines the theoretical foundations, economic essence, and development prospects of corporate mergers and acquisitions in modern conditions. The study identifies key factors influencing the efficiency of these processes and provides a scientific justification of the challenges arising during integration. In addition, the transformation of mergers and acquisitions and the impact of innovative technologies on these processes are analyzed. Based on the research findings, scientific and practical recommendations for improving these processes have been developed.

**Keywords:** merger, acquisition, globalization, synergy effect, horizontal merger, vertical merger, conglomerate merger.

## KIRISH

So'nggi-yillarda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va kompaniyalar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi nafaqat jahon iqtisodiyotida, balki milliy iqtisodiyotlarda ham barqaror tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqobat ustunliklari uchun kurash, iqtisodiyotning turli segmentlarida faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning integratsiyasi hamda xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi kompaniyalarning birlashishi va qo'shib olishi (M&A) jarayonlarida o'z ifodasini topmoqda.

Korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar orqali kompaniyalar bozordagi o'z ulushini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion salohiyatni kengaytirish hamda sinergetik samaraga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, korporativ boshqaruv sifati va investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda kompaniyalarni qayta tashkil etish usullarining yagona klassifikatsiyasi mavjud emas. Bu, avvalo, birlashish va qo'shib olish jarayonlarini ifodalovchi yagona terminologik yondashuvning shakllanmagani bilan izohlanadi. Shu bois ushbu maqsadga erishish uchun mahalliy va xorijiy iqtisodchi-olimlar tomonidan berilgan talqinlar qiyosiy tahlil qilinib, ushbu tushunchalarning asosiy mezonlari ajratib ko'rsatiladi.

Xorijiy iqtisodchi P.A. Goxan kompaniyalarni qayta tashkil etishning uchta shaklini ajratadi: birlashish, qo'shib olish va konsolidatsiya. Uning ta'kidlashicha, "birlashish – bu ikki kompaniyaning kombinatsiyasi bo'lib, natijada bitta kompaniya o'z faoliyatini to'xtatadi, ikkinchisi esa faoliyatni davom ettiradi. Konsolidatsiya esa ikki yoki undan ortiq kompaniyalar negizida mutlaqo yangi kompaniya tashkil etilish jarayonidir. Qo'shib olish esa birlashishning bir ko'rinishi sifatida qaralib, u nodo'stona birlashish shaklida namoyon bo'ladi" [1]. Shu tariqa, P.A. Goxan fikricha, asosiy jarayon birlashish bo'lib, qo'shib olish esa ushbu jarayonning do'stona yoki dushmanona ekanligini aniqlab beradi.

F. Rid va R. Laju qo'shib olishni bitim natijasida kompaniyaning xaridor mulkiga aylanishi sifatida ta'riflaydilar [2]. Bunda xaridor qo'shib olingan kompaniya ustidan nazorat o'rnatadi va uning barcha aktivlari hamda majburiyatlarini o'z balansiga oladi.

Olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan birlashish turlari (teskari birlashish, forvardli birlashish) shundan dalolat beradiki, birlashish ko'proq texnik-huquqiy tushuncha bo'lib, u qo'shib olishdan keyin amalga oshirilishi yoki umuman amalga oshmasligi mumkin bo'lgan jarayonlarni ifodalaydi.

D. Depamfilis birlashish jarayonlarida tashkiliy (huquqiy) va iqtisodiy jihatlarni ajratadi [3]. Tashkiliy jihat birlashishdan keyin bitim ishtirokchilaridan faqatgina biri yuridik shaxs maqomini saqlab qolishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy jihat esa birlashish yo'nalishini belgilaydi (gorizontal, vertikal yoki konglomerat). Qo'shib olish natijasida, muallif fikricha, bitta kompaniya ikkinchisining mulkdoriga aylanadi va uni nazorat qiladi. Bu jarayon aktivlar yoki aksiyalarni sotib olish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda qo'shib olingan kompaniya yuridik shaxs maqomini saqlab qolib, shu'ba korxonasi sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Shu tariqa, D. Depamfilis fikriga ko'ra, birlashish va qo'shib olish o'rtasidagi asosiy farq shundaki, birlashishda bitta yuridik shaxs o'z faoliyatini to'xtatadi, qo'shib olishda esa har ikki kompaniya yuridik mustaqilligini saqlaydi, faqat aksiyalar egasi o'zgaradi.

F. Evans va D. Bishop esa birlashishni, avvalo, yuridik jarayon sifatida talqin qilib, unda ikki kompaniyaning birlashishi natijasida bittasi ikkinchisiga qo'shilib ketishi yoki mutlaqo yangi yuridik shaxs tashkil etilishini ta'kidlaydilar [4].

M&A (Mergers & Acquisitions) atamasi anglo-sakson huquq tizimidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan bo'lib, korporativ nazoratning boshqa subyektaga o'tishi bilan bog'liq barcha bitim turlarini ifodalashda qo'llaniladi. Bularga birlashish, qo'shib olish, aktivlar yoki qimmatli qog'ozlarni sotib olish, aktivlar almashinuvi, qarz mablag'lari hisobidan sotib olish (LBO), mulk tuzilmasini o'zgartirish, shuningdek, teskari birlashish orqali IPO o'tkazmasdan ommaviy kompaniya tashkil etish kiradi.

Mahalliy olimlarimizdan S. Elmirzayev tomonidan birlashish va qo'shib olishlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad sifatida biznesga qo'shimcha elementlarni birlashtirish va integratsiyalash hisobiga kompaniyaning strategik ustunligini ta'minlash ko'rsatib o'tilgan [5].

Iqtisodiy adabiyotlarda birlashish va qo'shib olish kompaniyalarni uzoq muddatli istiqbolda raqobat ustunliklariga erishish va qiymatini maksimalashtirish maqsadida yagona xo'jalik yurituvchi subyektaga birlashtirishga qaratilgan moliyaviy operatsiyalar majmuasi sifatida qaraladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar (M&A) jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlarni chuqur o'rganish maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullariga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini korporativ moliya, strategik boshqaruv hamda institutsional iqtisodiyot yo'nalishlaridagi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Xususan, birlashish va qo'shib olish jarayonlarini tushuntirishda sinergetik samaradorlik nazariyasi, agentlik nazariyasi hamda bozor nazorati konsepsiyalaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar orqali M&A bitimlarining iqtisodiy mohiyati, ularning kompaniya qiymatiga ta'siri va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ birlashish va qo'shib olish — bu bitimlar bo'lib, ular mulk huquqining o'tishi bilan birga, avvalo, korporatsiya ustidan nazoratning o'zgarishini nazarda tutadi. Chet el adabiyotida birlashish deganda ikki korporatsiyaning qo'shilishi tushuniladi, bunda ulardan biri saqlanib qoladi, ikkinchisi esa faoliyatini to'xtatadi



[6]. Birlashish natijasida qo'shib oluvchi kompaniya o'z tarkibiga qo'shib olinayotgan korporatsiyaning aktivlarini qo'shadi.

Shu kabi bitimlarni ta'riflashda ishlatiladigan yana bir atama — “qo'shib olish (takeover)”dir. Kompaniya yoki aktivni qo'shib olish deganda bu kompaniya yoki aktiv ustidan to'liq nazorat o'rnatish (huquqiy va amaliy jihatdan) nazarda tutiladi. “Qo'shib olish” atamasi ko'pincha korporativ nizolarning eng yaqqol va keng tarqalgan turlaridan birini ifodalashda ishlatiladi.

Birlashish va qo'shib olish — bu ikki korporatsiyaning birini asos qilib olib, uning bazasida bozor qiymatini oshirish maqsadida birlashtirish jarayonidir. Nazariya va amaliyotda birlashishlarning ma'lum bir vaqtda ommalashishi yoki, aksincha, kamayish sabablari haqida yagona fikr mavjud emas. Ko'p hollarda birlashishlar samarasiz bo'lib chiqadi yoki ehtimol foydali bo'lishi mumkin bo'lgan birlashishlar amalga oshmaydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kompaniyalarning birlashish va qo'shib olish jarayonlariga yagona va mutlaq ta'rif berish amalda imkonsizdir. Mazkur hodisalar kompleks yondashuv asosida o'rganilishini talab qiladi va uni tahlil qilishda quyidagi uchta asosiy darajani ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq (— chizma):

– huquqiy daraja — mulk huquqlarini qayta taqsimlash, huquqiy vorisni belgilash, shuningdek, kompaniyalar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarning o'tishi bilan bog'liq masalalarni tartibga soladi;

– buxgalteriya hisobi darajasi — aktivlar va majburiyatlarni birlashtirish mexanizmlari, ularni tan olish mezonlari hamda birlashish va qo'shib olish bitimlarini buxgalteriya hisobotida aks ettirish usullarini qamrab oladi;

– iqtisodiy daraja — birlashtirilgan kompaniyaning raqobat ustunliklari manbalarini, shuningdek, ushbu ustunliklarni shakllantiruvchi omillarni aniqlashga qaratilgan.

Birlashish va qo'shib olish bitimlarida huquqiy muammolar yashirilmaligi, firibgarlik sxemalari mavjud bo'lmasligi, shartnomani bekor qilish va kompensatsiya mexanizmlari nazarda tutilishi lozim. Birlashish va qo'shib olishda ushbu jarayonlarga turtki bo'luvchi sabablar ham juda muhim ahamiyatga ega. Asosiy sabab iqtisodiy samaraga erishishdir. Odatda, samarasiz birlashish va qo'shib olishlar qo'shib olinayotgan kompaniyaning bozor salohiyatini asossiz ravishda yuqori baholash, sinergiya effektini ortiqcha baholash, mavjud muammolarni yetarlicha tahlil qilmaslik hamda narxlarni his-hayajon bilan ortiqcha oshirish kabi sabablar bilan bog'liq bo'ladi.

Korporativ birlashishlarni bir nechta belgilariga ko'ra tasniflash mumkin. Jumladan:

1. Shakli bo'yicha korporativ birlashish. Barcha ishtirokchi kompaniyalar mustaqil faoliyatini to'xtatadi va yangi yuridik shaxs tashkil qiladi. Yangi korporativ subyekt esa huquqlar, majburiyatlar va kapitalning to'liq “merosxo'ri” hisoblanadi.

2. Aktivlar bo'yicha korporativ birlashish. Ishirokchi kompaniyalar mustaqil faoliyatlarini davom ettiradi, lekin yangi tashkilotga istisno tariqasida muayyan huquqlarni, masalan, ishlab chiqarish yoki kapital huquqlarini topshiradi.

Biz buni quyidagi jadvalda aks ettiramiz:

1-jadval

Korporativ birlashishlarning shakli va aktivlar bo'yicha birlashish turlari

Korporativ birlashishning turi	Ta'rif	Misol
Shakli bo'yicha birlashish	Barcha ishtirokchi kompaniyalar mustaqil faoliyatini to'xtatadi va yangi yuridik shaxs tashkil qiladi.	Yangi ishlab chiqaruvchi kompaniya tashkil qilish.
Aktivlar bo'yicha birlashish	Ishirokchi kompaniyalar mustaqil faoliyatni davom ettiradi, lekin yangi tashkilotga muayyan huquqlarni topshiradi.	Kompaniyaning texnologiya yoki ishlab chiqarish huquqlarini yangi kompaniyaga berish.

Faoliyat turiga ko'ra korporativ birlashishlar quyidagicha tasniflanadi:

– gorizontal (horizontal merger) birlashishlar. Kompaniyalar to'g'ridan-to'g'ri raqobatchilar hisoblanadi. Ular bir sohada faoliyat yuritadi va bir xil mahsulot ishlab chiqaradi. Asosiy maqsad — kompaniyani kuchaytirish va raqobatni kamaytirish;

– vertikal (vertical merger) birlashishlar. Kompaniyalar ta'minotchi va ishlab chiqaruvchi prinsipi bo'yicha birlashadi. Maqsad — ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va mahsulot tannarxini kamaytirish;

– parallel korporativ birlashishlar. Bunda ikki kompaniya o'zaro bog'liq mahsulotlar ishlab chiqaradi. Masalan, smartfon ishlab chiqaruvchi va ekranlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar. Natijada ishlab chiqarish jarayoni yaxshilanadi va mahsulot sifati oshadi;



– konglomerat korporativ birlashishlar. Hech qanday ishlab chiqarish yoki sohaviy bog‘liqlikka ega bo‘lmagan kompaniyalar birlashadi. Ular avval raqobatda bo‘lmagan va o‘zaro hamkorlik qilmagan. Maqsad — bozor ni kengaytirish va sotuvni oshirish.

Korporativ birlashishlar korporativ tuzilmalarning qaysi hududda joylashganligiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi: ichki (bir mamlakat hududida amalga oshiriladi), importli (xorijiy kompaniyalar huquqlari sotib olinadi), eksportli (kompaniya huquqlarni boshqa davlatdagi tashkilotga topshiradi) va aralash (ishtirokchilar turli davlatlarda joylashgan) birlashish va qo‘shib olishlar.

Geografik belgisiga ko‘ra esa mahalliy (bir shahar yoki aholi punktida amalga oshiriladigan), hududiy (viloyat, o‘lka yoki respublika darajasida), milliy (bir mamlakat hududida), transmilliy (bir necha davlat ishtirok etadigan) korporativ birlashishlar kuzatiladi.

Bundan tashqari, korporativ birlashishlarning qo‘shimcha turlari ham mavjud:

– do‘stona korporativ birlashish — har ikki tomonning roziligi bilan amalga oshiriladi;

– do‘stona bo‘lmagan korporativ birlashish — bir tomon kompaniyaning roziligsiz amalga oshiriladi, bu holatda “korporativ birlashish”, “qo‘shib olish”, “yutib yuborish” kabi tushunchalar yuzaga keladi.

Birlashish va qo‘shib olishni rejalashtirish jarayonida boshqa kompaniyani sotib olish narxini aniqlash zarur, chunki bu narx bitimning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

Birlashish va qo‘shib olishlar yirik kompaniyalar va korporatsiyalar rivojlanishining eng ommalashgan usullaridan biri hisoblanadi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, XX asrning 1990-yillari o‘rtalaridan boshlab ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga qaratilgan investitsiyalar hisobiga emas, balki birlashish va qo‘shib olishlar shaklidagi investitsiyalar hisobiga ta‘minlangan.

Mamlakatimizda birlashish va qo‘shib olish jarayonlari nisbatan yaqin davrda shakllangan bo‘lib, shu bois xorijiy mamlakatlar, xususan, AQSh tajribasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh iqtisodiyotining XIX asr oxiridan boshlab rivojlanishini tahlil qilish natijasida tadqiqotchilar birlashish va qo‘shib olish jarayonlarining muayyan “to‘lqinlar” asosida kechishini aniqlaganlar. Bunday to‘lqinlarning o‘rtacha davriyligi 15–20-yilni tashkil etadi:

1. 1887–1904-yillardagi birlashish to‘lqini;
2. 1916–1929-yillardagi kompaniyalar birlashishi to‘lqini;
3. 1940–1948-yillardagi birlashish to‘lqini;
4. XX asrning 1960–1970-yillaridagi konglomerat birlashishlar to‘lqini;
5. 1980-yillardagi birlashish to‘lqini;
6. 1990-yillar ikkinchi yarmidagi birlashish to‘lqini;
7. 2003–2007-yillardagi birlashish to‘lqini.

Birinchi to‘lqin 1897-yilda boshlanib, taxminan 1904-yilda yakunlangan bo‘lib, bir xil tarmoqda faoliyat yurituvchi yirik kompaniyalarning birlashishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda kompaniyalar bozor ulushini oshirish va monopol mavqega erishish maqsadida yiriklashgan. Shu sababli mazkur to‘lqin ko‘pincha monopolistik to‘lqin deb ataladi va unda, asosan, gorizont birlashishlar ustunlik qilgan. Keyinchalik AQShda gorizont birlashishlarni cheklovchi antitrust qonunchiligi qabul qilingan.

Ikkinchi to‘lqin 1916–1929-yillarni qamrab olib, bu davrda kompaniyalar o‘z bozor segmentlarini kengaytirish va monopol kuchini oshirishga intilgan. Shuningdek, xomashyo manbalari uchun kurash birlashishlar tuzilishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Natijada ishlab chiqarishni barcha bosqichlarda optimallashtirish va arzon xomashyo manbalariga ega bo‘lish asosiy maqsad bo‘lgan va, asosan, vertikal birlashishlar amalga oshirilgan.

Uchinchi to‘lqin 1940–1948-yillarga to‘g‘ri kelib, iqtisodiyotning barqaror o‘sishi sharoitida yirik kompaniyalar kichik kompaniyalarni, asosan, do‘stona shaklda qo‘shib olish orqali o‘sishga intilgan.

To‘rtinchi to‘lqin 1960-yillardagi barqaror iqtisodiy o‘sish davrida yuz bergan. Bu vaqtda kompaniyalarda ortiqcha moliyaviy resurslar paydo bo‘lib, yangi bozorlarga, jumladan, o‘zlari uchun yangi faoliyat sohalariga kirish istagi kuchaygan. Ushbu davrda konglomerat birlashishlar ustunlik qilgani uchun bu to‘lqin konglomerat birlashishlar to‘lqini deb ataladi. Biroq risklar yetarlicha baholanmagani sababli keyinchalik ko‘plab kompaniyalar qiyinchiliklarga duch kelgan va ayrim hollarda ularning bo‘linishiga olib kelgan.

Konglomerat bitimlarning keng tarqalishi resurslarni samarasiz qayta taqsimlashga sabab bo‘lgan. Natijada fond bozori bunday birlashishlarga salbiy munosabat bildirib, sotib oluvchi kompaniya aksiyalari qiymatining pasayishiga olib kelgan.

Keyingi bosqichda 1960-yillarda tashkil etilgan ayrim kompaniyalarning yashovchan emasligi oydinlashib, AQSh ma‘muriyati antitrust qonunchiligini erkinlashtirishni boshlagan. Samarasiz konglomeratlar bo‘linib, turli usullar orqali biznes optimallashtirilgan.

1980-yillarda inflyatsiya va kredit siyosati ta‘sirida navbatdagi to‘lqin yuzaga kelib, nodo‘stona qo‘shib olishlarga qarshi yopiq kompaniyalar shakliga o‘tish kuzatilgan. 1990-yillar oxirida esa yangi, yanada kuchli to‘lqin paydo bo‘lib, 1999-yilga kelib birlashish va qo‘shib olish bitimlari hajmi AQSh YAIMining 15 foizini tashkil etgan [7].



So'nggi to'liqin (2003–2007-yillar) globallashuv, xomashyo narxlarining oshishi, past foiz stavkalari va xususiy investitsiya fondlari faolligi bilan xarakterlanadi. Biroq 2008-yildagi ipoteka inqirozi natijasida M&A bozori keskin qisqargan.

Jahon moliyaviy inqirozidan keyingi-yillarda M&A bozori pasayib, faqat 2013–2016-yillarda barqaror o'sish kuzatilgan. Hozirgi kunda xalqaro bitimlar ulushining ortishi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida yuqori o'sish sur'atlari hamda yarimo'tkazgich sanoatida yirik bitimlarning ko'payishi asosiy tendensiya hisoblanadi.

AQSh tajribasi asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- samarasiz qo'shib olish keyinchalik kompaniyaning bo'linishi va qayta tuzilishiga olib keladi;
- davlatning haddan tashqari aralashuvi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;
- birlashish va qo'shib olish bitimlarining katta qismi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi;
- qonunchilik yetarli darajada takomillashmagan sharoitda kompaniyalar nodo'stona qo'shib olishlardan himoyalani uchun katta xarajatlarga duch keladi, bu esa ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Ko'rinib turibdiki, birlashish va qo'shib olish yirik kompaniyalar va korporatsiyalar uchun tashqi o'sishning eng keng tarqalgan strategiyalaridan biri hisoblanadi. 2023-yilda jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik sababli M&A faoliyati so'nggi 10-yildagi eng past darajaga tushgan bo'lsa-da, 2024-yilda ushbu bozor qayta tiklana boshladi. Bu jarayonda asosiy yetakchi sohalar sifatida texnologiyalar, sog'liqni saqlash va moliya tarmoqlari ajralib turdi.

2024-yilda jahon bo'yicha M&A bitimlari hajmi 3,4 trln AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 15 foizga yuqori bo'lib, 2021-yilda kuzatilgan eng yuqori ko'rsatkichga (6,1 trln dollar) nisbatan past darajada qoldi. Bozorda asosan qiymati yuqori bo'lgan, biroq soni cheklangan bitimlar ustunlik qildi [8].

Mintaqalar kesimida 2024-yilda ko'rsatkich quyidagicha bo'lgan:

- Shimoliy Amerika — 50 %;
- Yevropa, Yaqin Sharq va Afrika — 25 %;
- Osiyo-Tinch okeani mintaqasi — 22 %.

Tarmoqlar bo'yicha esa texnologiyalar sohasining ulushi 19 %, sog'liqni saqlash — 10 % va moliya sohasi — 9 % ni tashkil etdi.

2024-yilda amalga oshirilgan eng yirik bitimlar quyidagilardan iborat [8]:

- ExxonMobil — Pioneer Natural Resources (64,5 mlrd dollar);
- Mars — Kellanova (35,9 mlrd dollar);
- Capital One — Discover Financial (35,3 mlrd dollar);
- Synopsys — Ansys (35 mlrd dollar).

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy birlashishlar va qo'shib olishlar bozori quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- yirik va strategik ahamiyatga ega bitimlar ulushining oshishi;
- xalqaro bitimlar sonining ko'payishi;
- texnologiya va sog'liqni saqlash sohalarining yetakchi rol o'ynashi;
- korporativ sektorning M&A bozorida ustunligi.

Birlashish va qo'shib olish kompaniyalarga bozor ulushini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli qiymat yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday bitimlar yuqori darajadagi huquqiy, moliyaviy va strategik tahlilni talab qiladi. M&A jarayonlarini chuqur o'rganish korporativ moliya, strategik boshqaruv va investitsiya siyosatini anglashda muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar zamonaviy iqtisodiyotda kompaniyalar rivojlanishining muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular orqali korxonalar resurslardan samarali foydalanish, bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar jarayonlarini samarali rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni beramiz:

Birinchi, korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar jarayonlarining huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish zarur. Xususan, birlashishlar va qo'shib olishlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlarga moslashtirish, bitimlarni amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlash hamda investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu bozor ishtirokchilari ishonchini oshirishga va investitsion faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish birlashishlar va qo'shib olishlar jarayonlarining samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bunda korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, direktorlar kengashi faoliyatini kuchaytirish va menejerlar mas'uliyatini oshirish orqali birlashish va qo'shib olish jarayonlarida qaror qabul qilish sifatini yaxshilash mumkin.



Uchinchidan, sinergetik samarani baholash va boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish lozim. Amaliyotda ko'plab birlashish va qo'shib olish operatsiyalari kutilgan samarani bermasligi, asosan, sinergiyani noto'g'ri baholash bilan bog'liq.

To'rtinchidan, raqamli texnologiyalarni birlashishlar va qo'shib olishlar jarayonlariga keng joriy etish zarur. Bunda big data tahlili, sun'iy intellekt va raqamli audit instrumentlaridan foydalanish orqali kompaniyalarni baholash, risklarni aniqlash hamda qaror qabul qilish jarayonlarini yanada takomillashtirish mumkin.

Beshinchidan, risklarni boshqarish tizimini yanada kuchaytirish lozim. Korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar jarayonlarida moliyaviy, huquqiy va operatsion risklarni kompleks baholash hamda ularni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bu orqali bitimlarning barqarorligi va uzoq muddatli samaradorligi ta'minlanadi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish birlashishlar va qo'shib olishlarning samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotda qiymat yaratish jarayonlarini faollashtirishga hamda milliy kompaniyalarning global bozordagi pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гохан П. А. Слияния, поглощения и реструктуризация компаний: пер. с англ. / П. А. Гохан. — М. : Альпина Бизнес Букс, 2007. — 741 с.

2. Рид Ф., Лажу А. Р. Искусство слияний и поглощений: пер. с англ. / Ф. Рид, А. Р. Лажу. — М. : Альпина Бизнес Букс, 2006. — 958 с.

3. Депаффилис Д. Слияния, поглощения и другие способы реструктуризации компаний / Д. Депаффилис. — М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2007. — 960 с.

4. Эванс Ф. Ч., Бишоп Д. М. Оценка компаний при слияниях и поглощениях: создание стоимости в частных компаниях: пер. с англ. / Ф. Ч. Эванс, Д. М. Бишоп. — М. : Альпина Бизнес Букс, 2004. — 336 с.

5. Elmirezayev S. Korporativ moliya : darslik. — T. : "Iqtisod-Moliya", 2019. — 364 bet.

6. Голодрыга С. Сделки слияния и поглощения в банковском секторе на современном этапе // Прикладные экономические исследования. — 2025. — № 2. — С. 49–56.

7. Мельник А. И., Перезозова О. В. Мировой опыт слияний (поглощений) и его использование в российской экономике // Международный научный журнал «Инновационная наука». — 2017. — № 6.

8. Mergers and Acquisitions Trends 2024. — URL: <https://www.alpha-sense.com/blog/trends/mergers-and-acquisitions-2024/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>